LEKSIK BIRLIKLARNING MATNDA PRAGMATIK NAMOYON BO‘LISHI

Samarqand Davlat Chet Tillar
Instituti tayanch doktoranti
Abdirazakova Zilola Kulmuratovna

Annotatsiya. *Ushbu maqolada leksik birliklarning matnda qanday ko’rinishda namayon bo’lishi, ularning semantik va stilistik vazifalari tahlil qilinadi. Matnning mazmuniy yaxlitligini ta’minlashda leksik birliklarning o’rni, ularning kontekstga moslashuvi hamda nutqiy jarayondagi funksional xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, matn ichida ma’no rang-barangligi haqida so’z yuritiladi.*

Kalit so’zlar: *leksik birliklar, matn lingvistikasi, semantika, kontekst, matn, uslubiy vositalar, nutq, nutqiy jarayon, tilshunoslik.*

Tilshunoslikda leksik birliklar tushunchasi tilning eng muhim kategoriyalardan biri hisoblanadi. Har bir leksik birlik semantik mazmunni ifodalaydi, hamda matnning kommunikativ-pragmatik tuzilishida muhim rol o’ynaydi. Bunda pragmatikaning vazifasi til birliklarining nutq jarayonida qanday maqsad uchun xizmat qilishini va qanday ta’sir etishini o’rganish. Shu sababli, leksik birliklarning matnda pragmatik namayon bo’lishini tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikda dolzarb masala bo’lib hisoblanadi.

Ushbu maqola – matndagi leksik birliklar, ularning pragmatik namayon bo’lishi haqida fikr yuritiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, matnshunoslikda semantika va pragmatika o’zaro uzviy bog’liq bo’lib, leksik birliklarning mazmuni faqat semantik jihatdan emas, balki pragmatik kontekstdan kelib chiqib ham tahlil qilinadi.

Tahlil qilish metodidan foydalangan holda o’zbek, rus va g’arb tilshunosligidagi pragmatika nazariyalarini solishtirish orqali umumiy va farqli jihatlar aniqlanadi. Ch. Morris pragmatika tushunchasini semiotika bo’limi sifatida shakllantirgan, S.Levinson pragmatikaning nazariy asoslarini chuqur yoritgan, J.Mey pragmatikaning kommunikativ vazifalarini ko’rsatgan, G.Yule esa pragmatikaning amaliy qo’llanishini izohlagan, pastda ko’rib chiqamiz ularning nazariyalarini.

O’zbek tilshunosligida M.Hakimov pragmalingvistika asoslarini ishlab chiqqan, S.Muhammedova va M.Saparniyazov matn lingvistikasi bo’yicha nazariy qarashlarini ilgari surgan. Komparativ yondashuv yordamida turli maktablarning pragmatika haqida qarashlarini taqqoslandi. Konseptul tahlil esa semantika va pragmatikaning matnshunoslikda metodologik asoslarini ochib berishga xizmat qiladi.

Nazariy tahlil natijasida shuni aniqlandiki, leksik birliklarning matnda pragmatik namayon bo’lishi bir necha asosiy funksiyalar orqali amalga oshadi. Birinchidan,

baholovchi birliklar adresatga muayyan ijtimoiy yoki emotsional munosabatni yetkazadi. Ikkinchidan, emotsional birliklar matnning ta'sirchanligini oshiradi va kommunikativ maqsadni kuchaytiradi. Uchunchidan, konnatativ birliklar matnga qo'shimcha ma'no qatlamini olib kiradi va adresatning idrokini kengaytiradi. G'arb tilshunosligida pragmatika ko'proq nutq aktlari nazariyasi bilan bog'liq holda izohlanadi, o'zbek tilshunosligida esa matnshunoslik va kommunikativ-pragmatik yondashuvlar asosida ko'rib chiqiladi.

O'zbek tilshunosligidagi yondashuvklar ko'proq matnning kommunikativ vazifasiga e'tibor qaratadi. Xalqaro tilshunoslikda esa pragmatika nutq aktlari, presuppozitsiya va konversatsion implikatura kabi nazariy kategoriyalar orqali ifodalanadi. Bu ikki yondashuvni taqqoslash shuni ko'rsatadiki, leksik birliklarning pragmatik namayon bo'lishi har ikki maktabda ham matnning mazmunini chuqurlashtiruvchi omil sifatida qaraladi. Nazariy qarashlarning amaliy ahamiyatini ham ko'rib chiqsak, til ta'limida matnning pragmatik tahlili o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini oshiradi, tarjima jarayonida esa pragmatik ekvivalentlikni ta'minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, tadqiqotning cheklovlari ham mavjud – masalan, pragmatikaning matndagi barcha ko'rinishlarini to'liq qamrab olish qiyin. Kelgusida bu yo'nalishda amaliy tadqiqotlar olib boorish zarur.

Leksik birliklarning matnda pragmatik namayon bo'lishi tilshunoslikda muhim nazariy masala hisoblanadi. Semantik-pragmatik yondashuvlar matn tahlilini chuqurlashtiradi va til birliklarining kommunikativ vazifalarini kengroq ochib beradi. Baholovchi, emotsional va konnatativ birliklar matnning pragmatik mazmunini shakllantiruvchi asosiy kategoriyalar bo'lib hisoblanadi.

Leksik birliklarni pragmatik tadqiq qilishda korpus lingvistikasi matnshunoslikda keng imkoniyatlar yaratadi. Chunki korpus asosida leksik birliklarning semantik va pragmatik vazifalari keng ko'lamda kuzatiladi. Baholovchi birliklarning turli kontekstlarda ishlatilish chastotasi aniqlanadi. Emotsional birliklarning badiiy va publisistik matnlardagi taqsimotini ko'rsatadi. Konnotativ birliklarlarning turli janrlarda pragmatik vazifani bajarayotgani kuzatiladi. Bu jarayon pragmatikaning nazariy qarashlarini amaliy dalillar bilan mustahkamlash imkonini beradi.

Mazkur maqola nazariy jihatdan konseptual asos yaratishga xizmat qiladi va metodologik yondashuvlarni boyitadi. Kelgusida bu nazariy qarashlarni amaliy tadqiqotlar bilan boyitish, xususan, badiiy va publitsistik matnlar asosida tahlil qilish zarur bo'ladi deb o'ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Levinson, S. C. *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
2. Mey, J. *Pragmatics: An Introduction*. Oxford: Blackwell, 1993.
3. Yule, G. *Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press, 1996.

4. Morris, C. *Foundations of the Theory of Signs*. Chicago: University of Chicago Press, 1938.
5. Hakimov, M. *O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari*. Toshkent: Fan, 2010.
6. Muhamedova, S., Saparniyozova, M. *Matn lingvistikasi*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2015.
7. Yusupova, X., Turdiboyeva, S. “Pragmatika borasidagi nazariy qarashlar.” *O‘zbek tilshunosligi jurnali*, 2018.
8. Xudoyberdiyeva, M. “Pragmatonimlarning lingvopragmatik tahlili.” *Filologiya masalalari*, 2020.
9. Lyons, J. *Semantics*. Cambridge: Cambridge University Press, 1977.
10. Grice, H. P. “Logic and Conversation.” In *Syntax and Semantics*, Vol. 3, 1975.